

# KICHIK VA XUSUSIY BIZNES SUB'EKTALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINI YURITISHDAGI MUAMMOLAR VA ULARNING ECHIMLARI

Toshkent Amaliy Fanlar universiteti

o'qituvchisi

KARIMOVA AZIZA ERKINOVNA

Toshkent Amaliy Fanlar universiteti

BH2201U02 gurux talabasi

MAXMADIYOROVA FOTIMA

## ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada kichik va xususiy biznes subyektlarining buxgalteriya hisobini yuritishdagi asosiy muammolari va ularning sabablari ko'rib chiqiladi. Muammolarni tizimli tahlil qilish orqali, maqolada mavjud holatga tegishli yechim takliflari ishlab chiqiladi. Xususan, buxgalterlik kadrlarining yetishmasligi, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish darajasi, qonunchilikdagi murakkabliklar va moliyaviy resurslarning cheklanganligi masalalari tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** kichik biznes, xususiy tadbirdorlik, buxgalteriya hisobi, moliyaviy nazorat, qonunchilik, axborot texnologiyalari.

## KIRISH

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy taraqqiyotining muhim yo'nalishlaridan biri – bu kichik va xususiy biznes subyektlarini rivojlantirish, ularning huquqiy, moliyaviy va institutsional jihatdan qo'llab-quvvatlanishidir. Davlat siyosatida ushbu sektorning iqtisodiyotdagi ulushi muntazam ortib bormoqda. Biroq, ularning faoliyatida uchraydigan muammolar, ayniqsa buxgalteriya hisobini yuritish sohasidagi qiyinchiliklar, faoliyatning shaffofligi va qonunchilikka muvofiqligini ta'minlashda jiddiy to'siq bo'lmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiyotning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida shakllanmoqda. Kichik korxonalar ko‘plab ish o‘rinlarini yaratishda, raqobat muhitini rivojlantirishda va byudjetga tushumlarni oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Biroq, bu sohada faoliyat yuritayotgan subyektlar ko‘pincha buxgalteriya hisobi yuritishda muammolarga duch kelishmoqda. Ushbu maqolada aynan kichik korxonalarda uchrayotgan buxgalteriya muammolari, ularning huquqiy asoslari, tahlili va real hayotga asoslangan amaliy yechimlari keng yoritiladi.

## ASOSIY QISM

### Kichik va xususiy biznes tushunchasi.

Kichik biznes deganda, odatda, ishchilar soni, yillik tushumi yoki balans qiymati belgilangan chegaradan oshmaydigan yuridik va jismoniy shaxslar tushuniladi. O‘zbekiston Respublikasida “Kichik biznes subyektlari” tushunchasi qonunchilikda aniq mezonlar orqali belgilanadi. Xususiy tadbirkorlik esa yakka tartibdagi yoki oilaviy korxonalar shaklida yuritiladigan faoliyat turlarini qamrab oladi.

Buxgalteriya hisobi – bu xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy holati va faoliyat natijalari to‘g‘risida to‘liq va ishonchli axborotlarni yig‘ish, tizimlashtirish va taqdim etish tizimidir. Kichik va xususiy tadbirkorlik subyektlari uchun buxgalteriya hisobining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- daromad va xarajatlarni nazorat qilish;
- soliqqa tortish uchun zarur bo‘lgan axborotlarni shakllantirish;
- moliyaviy hisobotlarni tuzish va taqdim etish;
- faoliyatni rejalashtirish va tahlil qilish.

### 1- Jadval:

№	Muammo nomi	Tavsif
1	Malakali buxgalterlarning yetishmasligi	Tajribali va bilimli kadrlar tanqisligi

<b>№</b>	<b>Muammo nomi</b>	<b>Tavsif</b>
2	Moliyaviy resurslarning cheklanganligi	Buxgalteriya dasturlarini sotib olish yoki malaka oshirishga mablag' yetishmasligi
3	Qonunchilikdagi tez-tez o'zgarishlar	Soliq va buxgalteriya me'yorlaridagi tez-tez o'zgarishlarga moslashishda qiyinchilik
4	Kompyuterlashtirish darajasining pastligi	Avtomatlashtirilgan hisob tizimlarining joriy etilmaganligi
5	Axborot xavfsizligining ta'minlanmasligi	Moliyaviy ma'lumotlar himoyasining sustligi
6	Tashkiliy buxgalteriya murakkabligi	shakllarning yuritishdagi Har bir faoliyat turi uchun alohida hisob yuritish zaruriyati

### **Kichik va xususiy bizneslarda buxgalteriya hisobini yuritishdagi asosiy muammolar**

Ko‘plab kichik korxonalar buxgalterga alohida byudjet ajrata olmaydi.

Ishga olingan buxgalterlar ko‘pincha yetarli tajribaga ega bo‘lmaydi.

Qonunchilikdagi o'zgarishlarni doimiy kuzatib borish uchun yetarli bilim va vaqt yetishmaydi.

#### **2- Jadval:**

<b>Klassifikator</b>	<b>20</b>							
O‘zbekiston	57,	56,	54,	54,	54,	54,	54,	45,
Respublikasi	5	9	6	3	3	3	6	
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	62,	61,	61,	64,	65,	65,	59,	
	3	4	8	6	8	8	5	

Andijon viloyati	7	72, 6	74, 6	69, 6	68, 5	69, 9	60,
Buxoro viloyati	6	76, 1	77, 1	74, 5	72, 73	63, 3	
Jizzax viloyati	1	84,	81 7	78, 3	75, 74,	66, 1	
Qashqadaryo viloyati	1	74, 8	71, 70	70, 5	71	62, 7	
Navoiy viloyati	8	27, 2	29, 9	27, 1	28, 1	25, 18	
Namangan viloyati	3	76, 2	76, 7	74, 3	74, 4	73, 3	67,
Samarqand viloyati	75	3	74, 8	70, 3	72, 3	72, 9	65,
Surxondaryo viloyati	78	4	78, 9	77, 4	77, 8	77, 4	72,
Sirdaryo viloyati	73	2	71, 8	67, 9	65, 2	68, 1	62,
Toshkent viloyati	52	2	48, 4	49, 2	52, 9	53, 1	50,
Farg'ona viloyati	3	73, 4	72, 6	71, 2	72, 1	73, 3	68,
Xorazm viloyati	4	77, 8	75, 9	71, 7	72, 3	72, 8	65,
Toshkent shahri	6	53, 1	51, 2	51, 7	51, 4	52, 9	48,

**Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami YaIMdagi ulushi**

## BUXGALTERIYA HISOBINI YURITISHDAGI ASOSIY MUAMMOLAR

### QUYIDAGILARDAN IBORAT:

#### 1. *Kadrlar salohiyati va malaka muammosi*

Kichik biznes subyektlarida malakali buxgalterlarni yollash imkoniyati ko‘p hollarda cheklangan bo‘ladi. Ular ko‘pincha tajribasiz yoki norasmiy shaklda faoliyat yurituvchi buxgalterlar xizmatidan foydalanadilar. Bu esa:

- noto‘g‘ri hujjat yuritishga;
- soliq hisobotlarida xatoliklar sodir bo‘lishiga;
- jazo choralariga duch kelishlariga olib keladi.

#### 2. *Axborot texnologiyalaridan foydalanishdagi muammolar*

Raqamlı texnologiyalar orqali buxgalteriya ishlarini avtomatlashirish imkonı mavjud bo‘lsa-da, kichik bizneslarda bu texnologiyalarni joriy etish quyidagi sabablarga ko‘ra sust:

- dasturiy ta’minot narxi yuqoriligi;
- texnik bilimlarning yetishmasligi;
- kompyuter savodxonligining past darajasi.

#### 3. *Qonunchilikdagi murakkabliklar va tez-tez o‘zgarishlar*

Soliq qonunchiligidagi yuz berayotgan tez-tez o‘zgarishlar kichik tadbirkorlar uchun qo‘sishma yuk bo‘lib, bu holat quyidagilarga olib keladi:

- qonunbuzilish ehtimoli ortadi;
- yangiliklardan xabardorlik pastligi sababli noto‘g‘ri qarorlar qabul qilinadi;
- vaqt va resurslar isrof bo‘ladi.

#### 4. *Moliyaviy resurslarning cheklanganligi*

Kichik va xususiy biznes egalari ko‘pincha buxgalteriya hisobiga yetarli mablag‘ ajratmaydi. Buxgalter ish haqi, dasturiy ta’minot xarajati, maslahatchilar xizmatlari uchun yetarli byudjet bo‘lmashigi buxgalteriya sifatining pasayishiga olib keladi.

## MUAMMOLARNI YECHISH YO'LLARI VA TAKLIFLAR.

### 1. Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash choralari

- Bepul yoki subsidiyalangan buxgalterlik dasturlarini joriy etish;
- Kichik biznes uchun onlayn ta'lif kurslari va vebinarlarni yo'lga qo'yish;
- Soliq inspeksiyalari tomonidan maslahat xizmatlarini kuchaytirish.

### 3-Jadval:

№	Muammo nomi	Tavsiya etilayotgan yechimlar
1	Malakali kadrlar yetishmasligi	Kadrlar malakasini oshirish, treninglar tashkil etish
2	Kompyuterlashtirish darajasining pastligi	Yengilroq va arzon dasturlar (masalan, Excel, 1C Start)dan foydalanish
3	Qonunchilikdagi o'zgarishlar	Doimiy monitoring qilish, soliq konsalting xizmatlaridan foydalanish
4	Axborot xavfsizligi muammosi	Zaxira nusxa olish, parol tizimi va antiviruslardan foydalanish
5	Moliyaviy cheklovlari	Davlat subsidiyalari yoki grantlar orqali dastur va treninglarga sarmoya qilish

**Buxgalteriya hisobi yuritishda duch kelinadigan muammolarni hal etish bo'yicha takliflar**

### 2. Raqamlashtirishni jadallashtirish

- Oddiy interfeysga ega dasturlar ishlab chiqish;
- Mobil ilovalar orqali hisobot topshirish tizimini kengaytirish;
- Elektron hujjat almashinushi tizimini ommalashtirish.

### 3. Tadbirkorlarning moliyaviy savodxonligini oshirish

- Buxgalteriya va soliq sohalarida qisqa muddatli o'quv kurslarini joriy qilish;
- Yosh tadbirkorlar mакtablarida buxgalteriya asoslarini o'qitish;

- Mahalliy hokimiyatlar orqali amaliy treninglar o‘tkazish.

**4-Jadval:**

№	So‘rovnama ishtirokchilari soni	Buxgalteriya muammo (%)	yuritishdagi asosiy
1	100 ta kichik biznes egasi	Qonunchilikdagi o‘zgarishlarga yetarlicha e’tibor yo‘qligi – 35%	
2		Malakali buxgalter topishdagi muammo – 28%	
3		Moliyaviy hisob yuritish dasturlarining qimmatliliği – 20%	
4		Ma’lumotlarni xavfsiz saqlashdagi muammo – 10%	

**So‘rovnama asosida aniqlangan real muammolar****XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, kichik korxonalarda buxgalteriya yuritishdagi muammolar tizimli va ko‘p qirrali bo‘lib, ularni bartaraf etish uchun huquqiy, texnik va inson resurslariga doir yechimlar zarur. Bu borada davlat idoralari, ilmiy muassasalar va xususiy sector o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, zamонавиу texnologiyalarni joriy etish va kadrlar salohiyatini oshirish orqali salmoqli natijalarga erishish mumkin. Mazkur maqolada bayon etilgan yechimlar esa real sharoitlarga asoslangan bo‘lib, O‘zbekistonning hozirgi iqtisodiy muhitida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan takliflardir.

Kichik va xususiy biznes subyektlarida buxgalteriya hisobi yuritilishidagi muammolar iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Ularning faoliyati shaffof, qonuniy va raqobatbardosh bo‘lishi uchun buxgalterlik tizimining mukammalligi muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun, bu sohadagi muammolarni aniqlash va bartaraf etish yo‘llarini ishlab chiqish nafaqat alohida tadbirkorlar, balki davlat iqtisodiy siyosati uchun ham muhimdir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonuni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagи PQ- 4604- sonli qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining buyrug‘lari va tavsiyaları.
4. www.lex.uz – normativ-huquqiy hujjatlar portalı.
5. Xalqaro moliyaviy hisobot standartları (IFRS).1. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. 2020-y.
6. Soliq va moliyaviy nazorat qo‘mitasi statistik axborotlari.
7. Sharipov S., Muxitdinov N. – “Buxgalteriya hisobi nazariyasi va amaliyoti”, Toshkent, 2022.
8. Internet manbalari: www.soliq.uz, www.lex.uz